

**KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMIDA "MEHNAT MUHOFAZASI VA XAVFSIZLIK
TEKNIKASI" FANINI O'QITISH METODIKASI**

**МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ "ОХРАНА ТРУДА И ТЕХНИКА
БЕЗОПАСНОСТИ" В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**METHODOLOGY FOR TEACHING THE SUBJECT "LABOR PROTECTION AND
SAFETY TECHNIQUES" IN THE SYSTEM OF VOCATIONAL EDUCATION**

Tursunova Nargiza Nigmatovna

Buxoro davlat texnika universiteti "Sanoat ekologiyasi va gidrologiya" kafedrasini dotsenti

Maxmudov Baxtiyor

Buxoro viloyati Peshku tuman 2-son politexnikumi direktori

Турсунова Наргиза Нигматовна

Доцент кафедры "Промышленная экология и гидрология" Бухарского государственного технического университета

Махмудов Бахтиёр

Директор 2-политехникума Пешкунского района Бухарской области

Tursunova Nargiza Nigmatovna

Associate professor of the Department of "industrial ecology and Hydrology", Bukhara State Technical University

Mahmudov Bakhtiyor

Director of the 2nd Polytechnic of the Peshku district of the Bukhara region

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada kasb-hunar ta'limi tizimida "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" fanini o'qitishning zamonaviy metodik yondashuvlari yoritilgan. Fan mazmunini kasbiy faoliyat bilan integratsiyalash, interfaol va innovatsion o'qitish metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda xavfsiz mehnat madaniyatini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari fanni o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar bilan asoslangan.*

Kalit so'zlar: *mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, kasb-hunar ta'limi, o'qitish metodikasi, interfaol metodlar, xavfsiz mehnat, o'qitish shakllari, nazorat turlari, metodik talablar.*

Аннотация: *В данной научной статье рассмотрены современные методические подходы к преподаванию дисциплины "охрана труда и техника безопасности" в системе профессионального образования. В данной научной статье рассмотрены современные методические подходы к преподаванию дисциплины "охрана труда и техника безопасности" в системе профессионального образования. Благодаря интеграции содержания науки с профессиональной деятельностью, использованию интерактивных и инновационных методов обучения были проанализированы вопросы формирования*

у студентов культуры безопасного труда. Результаты исследования обоснованы научно-методическими рекомендациями по повышению эффективности преподавания предмета.

Ключевые слова: *Охрана труда, техника безопасности, профессиональное обучение, методика обучения, интерактивные методы, Безопасный труд, формы обучения, виды контроля, методические требования.*

Annotation: *This scientific article covers modern methodological approaches to the teaching of the subject "labor protection and safety techniques" in the system of vocational education. This scientific article covers modern methodological approaches to the teaching of the subject "labor protection and safety techniques" in the system of vocational education. Through the integration of the content of Science with professional activities, the use of interactive and innovative teaching methods, issues of the formation of a safe culture of labor in students have been analyzed. The results of the study are based on scientific and methodological recommendations for improving the effectiveness of teaching science.*

Keywords: *labor protection, security techniques, vocational training, teaching methodology, interactive methods, safe Labor, forms of training, types of control, methodological requirements.*

KIRISH

Mamlakatimizda kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish, raqobatbardosh va malakali kadrlar tayyorlash jarayonida mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi fanining o'rni beqiyosdir. Ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi o'quvchilarda xavfsiz mehnat ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish texnologiyalarining jadal rivojlanishi va mehnat jarayonlarining murakkablashuvi mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga bo'lgan talabni oshirmoqda. Ayniqsa, kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim olayotgan o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida xavfsiz mehnat ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mehnat muhofazasi – bu mehnat jarayonida inson hayoti va sog'lig'ini saqlashga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik va sanitariya-gigiyenik tadbirlar tizimidir. Kasb-hunar ta'limida ushbu fan o'quvchilarda xavfsiz mehnat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi [1].

Xavfsizlik texnikasi ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan xavfli omillarning oldini olishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

"Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" fani o'quvchilarda ishlab chiqarish jarayonidagi xavfli va zararli omillarni aniqlash, ularning oldini olish hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur fanni o'qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sanaladi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

- ilmiy va normativ-huquqiy manbalarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatish;
- taqqoslash va umumlashtirish;
- tajriba-sinov mashg'ulotlari natijalarini tahlil qilish.

Asosiy qism. "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" fanini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda ishlab chiqarish jarayonida xavfsiz mehnat qilish, mehnatni muhofaza qilish qoidalariga ongli rioya etish hamda baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat [2].

Kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" fanini o'qitishda quyidagi vazifalar belgilanadi:

- mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasining huquqiy asoslarini o'rgatish;
- ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillarni aniqlashga o'rgatish;
- shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish;
- favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- kasbiy kasalliklar va jarohatlanishlarning oldini olish.

Kasb-hunar ta'limida ushbu fan quyidagi tamoyillar asosida o'qitiladi:

- Nazariya va amaliyot birligi;
- Kasbga yo'naltirilganlik;
- Ko'rgazmalilik;
- Faollik va mustaqillik;
- Xavfsizlikni ustuvor qo'yish;
- Tizimlilik va ketma-ketlik [3].

O'qitish metodlarining tasnifi va samaradorligi. Tadqiqot natijalariga ko'ra "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" fanini o'qitishda quyidagi metodlar yuqori samaradorlikka ega ekanligi o'z tasdig'ini topdi:

1) An'anaviy metodlar (ma'ruza, tushuntirish, suhbat, ko'rsatma yoki yo'riqnoma) – nazariy bilimlarni shakllantirishda;

2) Amaliy metodlar (laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, ish joyida xavfsizlik bo'yicha yo'riqnoma, texnika xavfsizligi bo'yicha mashqlar) – xavfsiz mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishda;

3) Interfaol metodlar ("Aqliy hujum", "Klaster", "Baliq skeleti", "Keys-stadi" (ishlab chiqarishdagi real holatlar tahlili), rolli o'yinlar (favqulodda vaziyatlarni modellashtirish) va boshqalar) – real ishlab chiqarish vaziyatlarini tahlil qilishda;

4) Innovatsion metodlar (multimedia vositalar, video darslar, virtual laboratoriyalar, Multimedia taqdimotlar, elektron testlar, simulyatorlar) – o'quvchilarning faolligi va qiziqishini oshirishda.

O'qitish shakllari sifatida nazariy darslar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, ishlab chiqarish ta'limi, mustaqil ta'lim, korxonalarda o'quv-amaliy mashg'ulotlar, seminar va treninglar kabi shakllar muhim rol o'ynaydi.

O'quv materialini tanlash va tuzish jarayonida quyidagi me'yoriy-huquqiy asoslaridan foydalaniladi: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi; O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni; Davlat standartlari (GOST, O'zDSt); sohalar bo'yicha xavfsizlik qoidalari (yengil sanoat, mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati va boshqalar). Tanlab olingan materiallar oddiydan murakkabga, umumiydan xususiyga tamoyili asosida beriladi [4].

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning metodik xususiyatlari. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ish joyidagi xavfli omillarni aniqlash, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish, yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalarini amalda qo'llash, elektr xavfsizligi bo'yicha mashqlarni bajarish hamda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini egallaydilar. Mashg'ulotlarni ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtirilgan sharoitda tashkil etish muhim metodik talab hisoblanadi.

"Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" fanidan o'quvchilarning bilimni baholash va nazorat qilish maqsadida quyidagi nazorat turlari qo'llaniladi:

- Joriy nazorat (savol-javob, test);
- Oraliq nazorat;
- Yakuniy nazorat [5].

Baholash mezonlari sifatida esa quyidagilardan foydalaniladi:

- nazariy bilimlar;
- amaliy ko'nikmalar;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilish darajasi;
- mustaqil fikrlash.

"Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" fanidan o'qituvchilarga qo'yiladigan metodik talablar quyidagilardan iborat:

- soha xavfsizlik qoidalarini mukammal bilish;
- ishlab chiqarish tajribasiga ega bo'lish;
- interfaol metodlardan samarali foydalanish;
- o'quvchilarda xavfsiz mehnat madaniyatini shakllantira olish [6].

Fan yakunida har bir o'quvchidan kutilayotgan natijalar:

- xavfsiz mehnat qoidalarini biladi;
- xavfli vaziyatlarni aniqlay oladi;
- himoya vositalaridan to'g'ri foydalanadi;
- favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qiladi;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarning oldini olish mumkin;
- kasbiy faoliyatida mehnat muhofazasiga ongli yondashadi [7].

Natijalar va muhokama. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, interfaol va innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning xavfsizlik qoidalarini o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarning ulushi yuqori bo'lgan ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustahkam kasbiy kompetensiyalar shakllanadi [8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar ta'limi tizimida "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish o'quvchilarda xavfsiz mehnat madaniyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va fan mazmunini kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida kasb-hunar ta'limi tizimida "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" fanini o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi. To'g'ri tanlangan metod va shakllar o'quvchilarda xavfsiz mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tursunova N.N., Shamsiyev R.X., Maxmudov B.X. "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" (boshlang'ich professional ta'limning 3.51.05.1-«Avtomobillarni ta'mirlash chilangari» kasbi bo'yicha). O'quv qo'llanma. Buxoro: Ipakyo'li, 2025. 272 b.

2. Tursunova N.N., Shamsiyev R.X., Maxmudov B.X. "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi" (boshlang'ich professional ta'limning 3.62.01.02-"Traktorchi-mashinist" kasbi bo'yicha). O'quv qo'llanma. Buxoro: Ipakyo'li, 2025. 248 b.

3. Tursunova N.N. Mehnat sharoitlari buzilganda xodimlarning sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun ish beruvchining javobgarligi. Международный современный научно-практический журнал "Новости образования: исследование в XXI веке", №31(100), февраль, часть 1, Москва 2025, С. 228-232.

4. Tursunova N.N. Ishlab chiqarishda mehnat ish jarayonini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish talablari. Международный современный научно-практический журнал "Научный фокус", № 19 (100), часть 1, ноябрь, 2024. С. 361-365.

5. Турсунова Н.Н. Рациональное использование водных ресурсов в Узбекистане. FARS Internatioanal Journal of Education, Social Sience and Humanities, Finlandiya, Volume-11, Issue-6, 22-06-2023. (SJIF) = 7.502 Impact factor. P. 740-749.

6. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun.

7. Турсунова Н.Н. Проблемы усиления познавательной активности учащихся в процессе практического обучения и способы их решения. Теория и практика современной науки: международный научно-практический журнал. 2019. № 6(48). С. 45-49.

8. Турсунова Н.Н. Переход к новой системе обучения в технических вузах. "Качество подготовки специалистов в техническом университете: проблемы, перспективы, инновационные подходы" материалы v международной научно-методической конференции, Могилёв, 2020. С. 98-101.